

GLOBALLASHUV DAVRIDA ARAB TILI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Majidov Murodjon Ne'matjonovich

Yangi Asr universiteti 1-kurs magistri

murodjonqori1972@gmail.com

Ilmiy rahbar: **doktor Salima Rustamiy**

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonida arab tilining faoliyati bayon qilingan. Arab tili o'z xalqining fe'l-atvorini ko'rsatib kelsada, arab adabiy tilidan o'z shevalariga haddan ziyoda bog'lanib, o'zga tillar ta'siriga tushib qolish natijasida bir qancha muammolarga duch kelayotgani va ularni yechimlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: arab tili, shevalar, klassik arab tili.

Аннотация. В данной статье изложена деятельность арабского языка в условиях глобализации. Несмотря на то, что арабский язык отражает характер и культуру своего народа, чрезмерная привязанность к диалектам и влияние других языков приводят к ряду проблем. В статье рассматриваются эти проблемы и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: арабский язык, диалекты, классический арабский язык.

Annotation. This article discusses the functioning of the Arabic language in the process of globalization. While Arabic reflects the character and culture of its people, excessive attachment to its dialects and the influence of other languages have led to several challenges. The article addresses these problems and explores possible solutions.

Keywords: Arabic language, dialects, classical Arabic language.

Kirish

Globallashuv dunyodagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, birlashuvi; voqeа-hodisalarining bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosiga ega bo'lishi, butun yer sharini qamrab oladi¹. Hamma millatlar kabi arab tili ham o'z boshidan ushbu jarayonni o'tkazmoqda.

Asosiy qism

Arab tili o'zining betakror go'zalligi, keng ma'noli ihcham so'zlari, hozir javobligi hamda, o'z xalqining asl tabiatini ko'rsata olishligi bilan qadindan mashhur. Arabiston yarim oroli Islom dini bilan dunyo ahliga dong taratmasdan oldin, arab xalqi orasida she'riyat va xatiblik (gapga chechanlik) keng ommaviy tus olgan edi. Ushbu darvda esa, Imrul Qats singari shoirlar xalq o'rtasida juda ham mashhur va e'tiborli bo'lishgan.

Bashariyat iftixori bo'lmish, Muhammad sollallohu alayhi va sallam Islom dinini olib kelgach, Qur'on Karim arablar o'rtasida keng bahs-munozaralarga sabab bo'ldi.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: 2003..

Chunki Qur'on Karim o'zining fasohat va balog'atda tengsizligi ila arablarni lol qoldirgan edi. U arablarni fasohat maydoniga janggi chorladi. O'zining mo'jaz suralariga o'xhash nitta sura keltirish, hatto bunga ular o'zlarida kuch topa olishmasa o'zgalarini ham yordamga chaqirishlariga imkon berdi². Bu bilan esa, u o'zining ilohiy kalom ekanligini hammaga ko'rsatib berdi. Ushbu ilohiy kalom o'zining tilovat qilingandagi qalblarga huzur baxsh etishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Hozirgi kungacha arab tili o'zining sofligini saqlab kelishiga Qur'on Karim va Hadis Navaviyning xizmatlari beqiyos katta. Arablar garchi, o'zaro suhbat jarayonida o'zlariga xos bo'lgan shevalar orqali muloqot qilishsa ham, maktab, oliygoh, televideniyada va gazeta-jurnal va kitoblarni chop etishda fusha (arab adabiy tili)dan foydalanishadi.

Arab tili o'zining sofligini saqlab kelayotgan bo'lsa ham, uning xilma-xil shevalari ushbu soqlikka soya solib kelmoqda. Arab xalqining shunday bir tabiatি borki, ular o'zaro gaplashganlarida iloji boricha so'zlarni qisqartirib ishlatishga odatlanishgan. Ular bu qisqartirishdan qanoat hosil qilmay, hattoki bir tovushni boshqa tovushga almashtirib ham ishlatadi. Misol uchun, arab harflaridan biri ث (sa) ت (ta)ga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Buni quyidagi misolda ko'ramiz: arabcha ﷺ so'zi (uch soni) تلاتة so'ziga (ma'nosiz) almashtirib qo'llaniladi. Shuningdek, so'zlarni qisqartirib ishlatishda arabcha ایش (qaysi narsa) so'zi ایش deb ishlatiladi. Har qanday til ham bu balo-ofatlar qarshisida dosh bera olmas. Chunonchi arab tili ham. O'z shevalariga qattiq bog'lanib qolgan arablar tillarini, hatto o'zlarining arab millati ekanliklarini unitishga juda yaqin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, arab adabiy tili o'z sheva to 'riga tuzoqqa tushib qolgan. Ushbu tuzoq esa bu arab xalqiga juda katta ma'naviy zarar keltirib chiqaradi. Tarixdan ma'lumki qanchadan qancha millat va elatlar o'z tilining sofligini saqlay olmaganliklari sabab o'zga xalqlar tilining ta'siriga tushib qolishgan. Natijada ular ushbu xalqlarning orasida yo'q bo'lib ketishgan. Bunga o'xhash balo-ofatlar ham arab xalqining boshiga qora bulut misoli soya solib turibdi.

Al-Azhar oliygohi doktori Muhammad Muso Jabboraning "Hozirgi arab tili: muammolar va yechimlar" nomli maqolasida yuqorida keltirilgan muammolar va ularning yechimlari to'g'risida o'z qayg'ularini bayon qilgan³. Ushbu doktorning maqolasidan eng kearakli joylarini o'zbek tiliga tarjima qilindi: "Bizning zamonomamizda arab tili bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Agar Alloh taolo uning saqlanishini ta'minlagan vahiy tili bo'lmaganda edi, muammo bu ezgu tilni butunlay yo'q qilish bilan bog'liq ko'p muammolardan faqat bittasi bo'lar edi. Biz bu muammolarni ko'rib turibmiz va afsuski, ular uni yo'q qilish uchun bu tilning odamlari tomonidan amaliy qadam topmasdan, kundan kunga kuchayib bormoqda. To'g'riroq'i, biz arablar ko'pincha band bo'lganimizda ishlaymiz yoki bu muammo ildiz otganini sezmaymiz desam, mubolag'a qilmagan bo'lardim. Bu bizning diniy va siyosiy va'zlarimizda, seminarlarimizda, muloqotlarimizda, ommaviy axborot

² Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – T.: 2017.

³ Mohammad s5 (at) hot mail.com

vositalarimizda, maktablarimizda va universitetlarimizda va hatto arab tili bilan bog'liq amaliy xabarni muhokama qilishda e'tiborsiz qolganimiz hozircha achinarli. Chunki tilimizga beparvolik qilib, aslida o'zimizni, yurtimizni, tariximizni, shonshuhratimizni va merosimizni ham qo'lidan boy beramiz. Biz o 'zimizni shunga erishmoqchi bo 'lgan boshqalarga singdirish uchun harakat qilamiz. Biz undan ba'zida zamonaviylikka, ba'zan esa globallashuvga chaqirgan xayqiriqlarni oldik. Bu bizning shaxsiyatimizni buzishdan boshqa narsa emas. Xalqimiz bu chuqr uyqudan uyg'onadimi?.

Arab tili o'zligimizni saqlab qoluvchi muhim omil. Shuning uchun biz uni himoya qilishimiz va unga g'amxo'rlik qilishimiz kerak. Bu Qur'on Karim tili. Ana shunday muammolardan biri mumtoz adabiy tilning ko'p sohalarda shevalarga raqobat qilishi. Bu esa faqat klassik arab tili uchun bo'lishi kerak. O'zining eng muhim qo'rg'onlaridan birida arab shevasi adabiy arab tili bilan raqobatlashadi. Shunday qilib, bu sheva adabiy arab tilini mакtabda ham, universitetda ham sinfda to'plab, uni qamal qilib hech yerga chiqarmaydi. Biz turli ilmlarning dars jarayoniga guvoh bo 'lamiz. Ulardan: arab tili darsida sheva tilida so'zlanadi. Bu klassik arab tilini o'rganish uchun mos emas degan ayblovni keltirib chiqaradi. To'g'rirog'i, mumtoz arab tili she'riyat, nasr va grammatikani ham o'rgata olmas. Bu til uchun eng xavfli narsalardan biri. Madrasa va oliygoh talabalari mumtoz arab tilidan faqat yozuvdagilarni bilishadi xolos. Biroq ularni har bir jiyda o 'rab oлган sheva esa mакtab va sinfxonalar ichida ham ularning quloqlariga quyilib turadi. Shundan keyin ham biz mumtoz arab tilining boqiy qolishini umid qilamizmi!"

Doktori Muhammad Muso Jabbora o'z xalqining tilini tanazzulga tushib ketishidan qattiq qayg'uda. Chunki til qayg'usi millat qayg'usidir. Ushbu doktorning qayg'usi – har bir millat ziyyolisining o'z xalqidagi – qayg'usi.

Muhtaram doctor ushbu muammolar yechimi to'g'risida ham o'zining bir qancha fikrlarini bayon qilgan. Uning fikricha shevalarning adabiy til ustidan hukmronligini bir qancha usullar yordamida yengish mumkin. Ulardan biri oila. Har bir oila o'zaro muloqotlarida adabiy til qoidalariga rioya qilishlari kerak. Oila bu jamiyatning uzviy bo'lagi bo'lib, unda keng qo'llanilgan narsa jamiyat hayotida qo'llanishligi oson. Mакtab va oliyohlarda adabiy til keng qo'llanishligiga va unga nisbattan qat'iy nazorat o'rnatilishiga davlat miqiyosida katta e'tibor qaratish zarur. Davlat ham o'z tilining sheva va o'zga tillar ta'siriga tushib qolmasligi uchun kerakli qonunlarni joriy etib, ushbu qonunlar ijrosini ta'minlash kerak.

Hozirgi zamon – internet tarmoqlari hamma sohalarga keng kirib ketgan zamon. Agarda ushbu tarmoqlar nazoratiga hukumat o'z nazoratini o'rnatish qiyin bo'lsa ham, bu yo'lidan hecham tolmasdan qadam tashlash kerak. Xalq ommasiga internet orqali ko 'rinish berib o 'z qarashlarini bayon qilib berayotgan har bir kishi adabiy til qoidalariga rioya qilishi muhim. Ushbu qoidalarga rioya qilishni nazorat qilish esa hukumat organlariga uncha ham qiyin muammo emas. Gazeta va jurnallarga intervyu berishdan oldin, adabiy til qonun-qoidalarini tushuntirilib o'tilishi maqsadga muvofiq.

Fan va texnikaga oid so‘zlar, atamalar iloji boricha har bir tilga o‘girilishi kerak. Agar buning hech iloji topilmasa, uni o‘z xoliga tashlashdan boshqa chora yo‘q. Jahon o‘z tarqqiy etish jarayonidan to‘xtamas.

Xulosa

Ushbu maqola birgina arab tili muammolari emas, xususan biz o‘zbeklarga ham tegishli o‘rinlari bor. Hozirgi davrimizda hukumatimiz g‘amxo‘rligi ostida haj va umraga keng yo‘l ochilgan. Minglab yurtdoshlarimiz Saudiya Arabistoniga ziyorat safarlarini ado etib, yurtimiz faravonligini yanada ziyoda bo‘lishini yaratgandan iltijo qilib so‘rab, fayz-barokot ila qaytib kelishmoqda. Safar chog‘ida har bir guruh yetakchisi arab tilidan xabardor bo‘lsa-da, ammo yuqoridagi muammolar oldida ular ham ojiz qolishmoqda. Shuningdek, davlatimiz rahbari muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich bir qancha arab sammitlarida qatnashib, u yerda dolzarb mavzularda nutq so‘zlab kelishmoqda. Ko‘p sohalarda arab davlatlari bilan diplomatic bitimlar tuzib, ular bilan aloqalarni mustahkamlamoqda. Xususan, mehnat migratsiyasi haqida. Arab davlatlariga ishga borishdan oldin arab adabiy tilidan oz-moz ta’lim olgan mutaxassislar, ularning shevalari ta’sirida katta qiyinchilikka duchor bo‘lishlari aniq. Shuning uchun, bu muammolarni biz ham o‘rganib, uning yechimlarini ko‘rsatib o‘tmog‘imiz lozim. Zero, tilshunos olimlar til haqidagi barcha qiyinchilik omillarini yechishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. – T.: 2017.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: 2003.
3. Nosirov O., Yusupov M. An-Naim arabcha-o‘zbekcha lug’ati. – N.: 2014.
4. Ulug’bek Sulton. As-Sulton o‘zbekcha- arabcha lug’at. – T.: 2011.
5. Ibrohimov N., Ikromjonov A., Zayriyev A., Oripov A. Al-Qomus arabcha-o‘zbekcha lug’at. – T.: 2019.